

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOIIY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIY DIPLOMATIYASI MARKAZIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOIIY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIY OSIYODA MA'NAVIY-SIYOSIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kirgizbayev Turgun,

Yunus Radjabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa va san'at instituti

mustaqil izlanuvchisi

e-mail: mila.kan.92@mail.ru

O'ZBEKISTON OMMAVIY DIPLOMATIYASI MARKAZIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839996>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda ommaviy diplomatiyaning shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasida ishonchni mustahkamlashning asosiy vositasi sifatida tahlil qilinadi. So'nggi yillarda Toshkentning mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, ochiq muloqot, madaniy almashinuv va gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbuslarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning ommaviy diplomatiyasi mintaqada va dunyoda mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirishga hissa qo'shig'i, mintaqaviy o'ziga xoslikni rivojlantirish va mustahkamlashga olib kelishi hamda mojarolar ehtimolini kamaytishi ko'rsatilgan. O'zbekistonning yangi tashqi siyosat strategiyasi kontekstida ommaviy diplomatiya mamlakatning "yumshoq kuch" salohiyatini va Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi hamda mintaqamamlakatlarining xalqaro munosabatlardagi rolini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan ishonch va o'zaro tushunish muhitini yaratishga bo'lgan amaliy intilishni ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: ommaviy diplomatiya, O'zbekiston, ishonch, hamkorlik, Markaziy Osiyo, mintaqamamlakatlar, xavfsizlik, muzokaralar, mintaqaviy hamkorlik, mintaqaviy o'ziga xoslik.

Киргизбаев Тургун,

соискатель Узбекского национального института

музыки и искусства имени Юнуса Раджаби

e-mail: mila.kan.92@mail.ru

ПУБЛИЧНАЯ ДИПЛОМАТИЯ УЗБЕКИСТАНА КАК ИНСТРУМЕНТ УКРЕПЛЕНИЯ ДОВЕРИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется формирование и развитие публичной дипломатии Узбекистана как одного из ключевых инструментов укрепления доверия в регионе Центральной Азии. Особое внимание уделено анализу стратегических инициатив Ташкента последних лет, направленных на продвижение политического сотрудничества, экономической интеграции, открытого диалога, культурного обмена и гуманитарного сотрудничества между странами региона. Показано, что публичная дипломатия Узбекистана способствует формированию позитивного имиджа страны в регионе и мире, ведет к формированию и укреплению

региональной идентичности и снижению конфликтного потенциала. В контексте новой внешнеполитической стратегии Узбекистана публичная дипломатия играет роль важнейшего инструмента, посредством которого реализуется потенциал «мягкой силы» страны, практического стремления к созданию атмосферы доверия и взаимопонимания, что необходимо для устойчивого развития Центральной Азии, укрепления роли стран региона в международных отношениях.

Ключевые слова: публичная дипломатия, Узбекистан, доверие, сотрудничество, Центральная Азия, регион, безопасность, переговоры, региональное сотрудничество, региональная идентичность.

Kirgizbaev Turgun,
Independent researcher
Yunusa Radjabov of the Uzbek National Institute
of Music and Art
e-mail: mila.kan.92@mail.ru

PUBLIC DIPLOMACY OF UZBEKISTAN AS A TRUST-BUILDING INSTRUMENT IN CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article analyzes the formation and development of public diplomacy in Uzbekistan as a key instrument for building trust in the Central Asian region. Particular attention is paid to the analysis of Tashkent's strategic initiatives in recent years aimed at promoting political cooperation, economic integration, open dialogue, cultural exchange, and humanitarian cooperation between the countries of the region. It is shown that Uzbekistan's public diplomacy contributes to the formation of a positive image of the country in the region and the world, leads to the development and strengthening of regional identity, and reduces the potential for conflict. In the context of Uzbekistan's new foreign policy strategy, public diplomacy plays a crucial role in realizing the country's soft power potential and the practical desire to create an atmosphere of trust and mutual understanding, which is necessary for the sustainable development of Central Asia and the strengthening of the role of the region's countries in international relations.

Keywords: public diplomacy, Uzbekistan, trust, cooperation, Central Asia, region, security, negotiations, regional cooperation, regional identity.

KIRISH

Hozirgi rivojlanish bosqichi xalqaro kommunikatsiyalar va axborot makonining tobora ortib borayotgan roli, davlatlarning tashqi siyosatini amalga oshirish vositalari hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatining kengayishi bilan tavsiflanadi. Shu sharoitda ommaviy diplomatiyaning ahamiyati keskin o'smoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar aktorlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ishonch, o'zaro tushunish va madaniy muloqotga asoslangan «yumshoq kuch» omilining kuchayishi sharoitida kechmoqda.

Yevrosiyo kommunikatsiyalari chorrahasida joylashgan, boy madaniy va tarixiy merosga ega Markaziy Osiyo so'nggi yillarda o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan yangi mintaqaviy modelni shakllantirishda dunyo miqyosida yetakchi hududlardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi ochiq tashqi siyosat kursini izchil amalga oshirib kelmoqda. Unda mamlakatning ijobiy qiyofasini mustahkamlash, yaqin qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish va mintaqaviy tashabbuslarni konsolidatsiya qilishda ommaviy diplomatiya salohiyatidan foydalanish tashqi siyosat strategiyasining eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: «Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston mazkur mintaqaning barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik makoniga aylanishidan bevosita manfaatdor» [1].

Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida O'zbekiston ommaviy diplomatiyasini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u mintaqaviy barqarorlik hamda izchil rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqola ilmiylik va tarixiylik tamoyillariga asoslangan. Qiyosiy-tarixiy metod Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning shakllanish bosqichlari va uni mustahkamlashga qaratilgan O'zbekiston tashabbuslarining izchilligini ochib berish imkonini yaratadi. Tizimli tahlil usuli esa O'zbekiston ommaviy diplomatiyasining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarini qay darajada yaxlit, muvofiq va mantiqiy ekanini aniqlash imkonini beradi.

Mavzu bevosita "tarmoq shaklidagi diplomatiya" konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lib, u xalqaro munosabatlarning ierarxik tizimlaridan ko'p aktorli, o'zaro bog'liq va gorizontol munosabatlarga o'tish jarayonini ifodalaydi. Shu ma'noda, u faqat davlat tashqi siyosatining vositasi emas, balki jamiyatning turli tarkibiy qismi bilan hamkorlik makoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu hamkorlik universitetlar va tadqiqot markazlaridan tortib, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarigacha bo'lgan keng maydonni qamrab oladi [2].

Metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning nutqlari va ma'ruzalari ham muhim o'rin tutadi [3,4,5,6].

ASOSIY QISM

Ommaviy diplomatiya davlatning xalqaro muloqotga to'g'ridan-to'g'ri kirishishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ifoda etadi. U, avvalo, madaniyat, ta'lim, fan va ommaviy kommunikatsiyalar orqali amalga oshiriladi [7]. Agar an'anaviy diplomatiya davlatlar o'rtasidagi rasmiy aloqalarni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ommaviy diplomatiya jamoatchilik fikrini shakllantirish va uzoq muddatli ishonch muhitini yaratishga yo'naltirilgan.

Zamonaviy ommaviy diplomatiyaning maqsadi milliy manfaatlarni ilgari surish, davlatning ijobiy qiyofasini shakllantirish va madaniy, ta'limiy, ilmiy hamda axborot almashinuvlari asosida o'zaro tushunishni mustahkamlashdan iborat. Ommaviy diplomatiya siyosiy yohud iqtisodiy bosim vositalaridan ko'ra, madaniy va qimmatliklarga tayanadigan gumanitar ta'sir orqali uzoq muddatli ishonchni shakllantirishni maqsad qiladi. Shu jihatdan u davlatning istalgan natijalarga zo'ravonlik yoki iqtisodiy bosim emas, balki o'z madaniy, siyosiy va ijtimoiy modellarining jozibadorligi orqali erishishga imkon beradigan "yumshoq kuch" konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [8].

Ommaviy diplomatiya bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, axborot funksiyasi tashqi siyosat yo'nalishini, davlat tashabbuslarini va xalqaro masalalar yuzasidan tutgan pozitsiyasini ochiq ravishda tushuntirish orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida oshkoralikni ta'minlaydi. Ikkinchidan, madaniy-kommunikativ funksiya madaniy almashinuv, ta'limiy va ilmiy hamkorlik orqali o'zaro tushunishni rivojlantiradi. Uchinchidan, integratsion funksiya davlatlar o'rtasida ijobiy o'zaro intizomli kutilmalarni shakllantirishga va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ommaviy diplomatiyaning samaradorligi axborot faolligining ko'lamiga bilan emas, davlatning ishonch uyg'otish, tashqi auditoriyalar bilan madaniy va emotsional aloqalar o'rnatish va ularni izchil ravishda kengaytirish qobiliyati bilan belgilanadi. Global kommunikatsiyalar va o'zaro bog'liqlik sharoitida ishonch xalqaro munosabatlarning eng muhim strategik resursiga aylanmoqda. Ishonch bir zumda paydo bo'lmaydi, balki hurmat, madaniy empatiya va muloqotga tayyorlikka asoslangan barqaror, izchil va ochiq kommunikatsiya jarayoni orqali shakllanadi.

Markaziy Osiyo kontekstida ishonch mintaqaviy xavfsizlik, siyosiy barqarorlik va izchil rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Mintaqaning tarixiy, etnomadaniy va ijtimoiy-siyosiy omillari o'z vaqtida o'zaro qabul qilish stereotiplari va savollarni yuzaga keltirgan, bu esa mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni murakkablashtirib kelgan. Tarixiy bahslar, hal etilmagan chegara masalalari, suv va energiya resurslari borasidagi raqobat, shuningdek tashqi siyosiy ustuvorliklar farqi mintaqaviy ishonch darajasini zaiflashtirgan.

Bunday sharoitda ommaviy diplomatiya yangi mintaqaviy o'zaro hamkorlik madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U Markaziy Osiyoni raqobat emas, balki o'zaro to'ldiruvchi va umumiy manfaatlarga asoslangan hamkorlik makoni sifatida namoyon etishga

xizmat qiladi. Madaniy festivallar, ta'limiy almashinuvlar, ekologiya va turizm bo'yicha qo'shma dasturlar, mediamaydondagi faol hamkorlik kabi tashabbuslar jamiyatdan davlatga tomon ishonchning «pastdan yuqoriga» yo'nalishda shakllanishining muhim kanallaridir [9].

2016-yildan keyin O'zbekiston tashqi siyosat sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakat tashqi siyosatda ommaviy diplomatiya vositalaridan yanada faol foydalana boshladi. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi yopiqlik va izolyatsiyadan mintaqaviy o'zaro bog'liqlik, hamkorlik va ishonchni mustahkamlashga yo'naldi. Bu siyosatning asosida mintaqaning barqaror rivojlanishi faqat qo'shnichilik munosabatlari va jamiyatlar darajasidagi o'zaro tushunishning mustahkamlanishi orqali ta'minlanishi mumkinligi to'g'risidagi tan olish yotadi.

Ommaviy diplomatiya O'zbekistonning Markaziy Osiyo kontekstidagi faoliyatida faqat ijtimoiy va madaniy hamkorlik vositasi sifatidagina emas, balki mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy tashqi siyosiy mexanizmlardan farqli ravishda, u xalqaro munosabatlarning "insoniy o'lchami"ga, ya'ni ishonch, qabul qilish madaniyati, qimmatliklar tizimi va hamkorlikka tayyorlik kabi omillarga ta'sir ko'rsatadi. Madaniy, ta'limiy, axborot va jamoatchilik tashabbuslarini birlashtirgan murakkab yondashuv orqali Uzbekiston o'zaro bog'liqlik, mintaqaviy ishonch va umumiy manfaatlarga asoslangan hamkorlik g'oyalari tayanadigan yangi tashqi siyosiy modelni shakllantirmoqda.

Ommaviy diplomatiya O'zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasida umume'tirofli tashabbuslar bilan chiqish imkonini beradi, bu esa mamlakatning dialog platformalarini shakllantiruvchi asosiy vositachi sifatidagi nufuzini mustahkamlaydi. O'z navbatida, ochiqlik, yaxshi qo'shnichilik va sherik davlatlarning suverenitetiga hurmat tamoyillari O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda mas'uliyatli va konstruktiv aktor sifatidagi qiyofasini mustahkamlaydi.

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston ommaviy diplomatiyasi mintaqada hamkorlikni qabul qilish madaniyatini tubdan o'zgartirishga xizmat qildi. Ilgari ko'p hollarda raqobat va past darajadagi integratsiya makoni sifatida tasavvur qilingan Markaziy Osiyo bora-bora ishonch, sheriklik va izchil kengayayotgan hamkorlik makoniga aylanmoqda. Ommaviy diplomatiyaning izchil rivojlanishi mintaqaviy hamkorlikning barcha yo'nalishlarida chuqurlashuvni ta'minlashga zamin yaratadi va bu o'z navbatida mintaqaning barqarorligi hamda xavfsizligini mustahkamlaydi.

Shuning uchun ham, ommaviy diplomatiya O'zbekiston uchun faqat tashqi siyosiy pozitsiyani belgilash vositasi emas, balki mintaqaviy strategiya modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. U tinchlik, ishonch va o'zaro rivojlanishni markaziy qiymat sifatida belgilaydi. Mazkur yo'nalishda barqaror gumanitar muloqot va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali Markaziy Osiyoning XXI asrda uzoq muddatli barqarorligi uchun asos yaratiladi.

O'zbekiston ommaviy diplomatiyasining asosini Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik tamoyillari tashkil etadi [10]. Qirg'iziston va Tojikiston bilan munosabatlarni normallashtirish, transport va gumanitar aloqalarni rivojlantirish, barcha qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan tashabbuslar mintaqaviy diplomatiyaning yangi modelini shakllantirdi. Bu model faqat hukumatlar o'rtasida emas, balki jamiyatlar o'rtasida ham hamkorlik rivojlanishiga tayanadi [11].

O'zbekiston tashqi siyosiy strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga shundan dalolatki, mintaqada mamlakatlari o'xshash tahdidlar va xatarlarga duch kelmoqda va bu doimiy muloqot, ishonch va o'zaro manfaatli hamkorlik qoliplarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jumladan, suv-energetika resurslari taqsimoti, transchegaraviy xavfsizlik, migratsiya jarayonlari, iqlim o'zgarishi, shuningdek, xalqaro terrorizm va ekstremizm tahdidlari kabi murakkab masalalarni yechish izolyatsiyalangan milliy choralardan ko'ra, ishonchga, ochiqlikka va o'zaro tushunishga tayangan kollektiv yondashuvlarni talab qiladi.

Shu sharoitda ommaviy diplomatiya "yumshoq muloqot"ning muhim kanali sifatida namoyon bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlariga an'anaviy siyosiy yoki harbiy mexanizmlardan tashqari yangi hamkorlik formatlarini shakllantirish imkonini beradi. Mintaqaning yetakchi davlatlaridan biri sifatida O'zbekiston ishonchni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni izchil amalga oshirmoqda. Ommaviy diplomatiya orqali ishonchni mustahkamlash nafaqat mintaqaviy muloqotni barqaror qiladi, balki Markaziy Osiyoning jahon miqyosida ijobiy qiyofasini shakllantiradi,

mintaqaviy identiklikni kuchaytirishga xizmat qiladi va mintaqadagi xalqlarning o'z taqdiriga javobgar subyekt sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Shu tariqa, mintaqaning davlatlari o'rtasida doimiy muloqotni saqlab turish va uni ommaviy diplomatiya vositalari bilan qo'llab-quvvatlash ziddiyatlarni yengishning vositasi bo'libgina qolmay, balki ochiqlik, hurmat va o'zaro manfaatga asoslangan yangi mintaqaviy hamkorlik paradigmasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, mintaqadagi davlatlarning axborot siyosati Markaziy Osiyoni o'zaro rivojlanish va hamkorlik makoni sifatida ijobiy tasavvur etishga qaratilgan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlar o'rtasidagi sheriklik haqidagi jamoatchilik qabul qilishini mustahkamlashga va o'zaro ishonchni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu sharoitda ijtimoiy tarmoqlarda xalqlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqotning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu shakldagi muloqot xorijiy auditoriyalar bilan bevosita aloqani ta'minlaydi, madaniy muloqot, totuvlik va umumiy qimmatliklar g'oyalarini targ'ib qiladi. Bunday kommunikatsiya formatlari, jumladan, O'zbekistonni muhokama jarayonlarida konstruktiv yondashuv va vositachilik tashabbusini ilgari surgan davlat sifatidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi xalq muloqoti yangi ommaviy jamoat maydonining namoyoni sifatida qaralishi mumkin. Bu maydonda ochiq muloqot va fikr almashish imkoniyatlari kengayadi. Mazkur qarash Yurgen Xabermasning kommunikativ harakat konsepsiyasi bilan uyg'un bo'lib, unga ko'ra, jamoat muloqoti turli ijtimoiy guruhlar va davlatlar o'rtasida ishonch va o'zaro tushunish manbai sifatida namoyon bo'ladi [12]. Axborot asrida ushbu jamoat maydoni yangi shaklda raqamli muhitga ko'chmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar yangi turdagi tarmoqlashgan ijtimoiylikni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bunda asosiy o'rin gorizontallik kommunikatsiya kanallariga tegishlidir. Mazkur yondashuv Manuel Kastelsning tarmoq jamiyati to'g'risidagi qarashlari bilan uyg'un bo'lib, unga ko'ra, axborot oqimlari ijtimoiy aloqalar tuzilishi va simvolik ta'sir taqsimotini belgilaydi [13]. Markaziy Osiyo sharoitida bu shunga olib keladiki, turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasidagi tarmoq platformalaridagi doimiy va ochiq muloqot madaniy yaqinlik va mintaqaviy "voobrajaemoe soobshchestvo" ("xayoliy hamjamiyat")ning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlarda xalqlar o'rtasidagi muloqot ishonchni mustahkamlaydi, qabul qilish to'siqlarini kamaytiradi, jamoat muhokamalarini internatsionallashtiradi va mintaqaning ijobiy obrazini shakllantiradi. Bu esa uni tashqi siyosiy pozitsiyani belgilashda va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim resursga aylantiradi.

XULOSA

Umuman olganda, zamonaviy bosqichda O'zbekiston ommaviy diplomatiyasi tashqi siyosiy maqsadlarga erishishda alohida ahamiyatga ega instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. U o'zaro bog'liq bir qator yo'nalishlar orqali amalga oshirilib, umumiy holda ishonch va hamkorlik infratuzilmasini barpo etadi. Bunday tashabbuslar Markaziy Osiyodagi mintaqaviy identiklikni qayta idrok etishga, davlatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlashga va uzoq muddatli barqarorlik hamda xavfsizlik uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Ommaviy diplomatiya orqali O'zbekiston o'z islohotlarining ijobiy qabul qilinishiga va mintaqaviy o'zlikni shakllantirishga hissa qo'shmoqda.

Xalqaro munosabatlarning transformatsiyasi va global o'zaro bog'liqlikning kuchayishi sharoitida ommaviy diplomatiya O'zbekistonning "yumshoq kuch" strategiyasining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. U Markaziy Osiyoda ishonch, hamkorlik va barqaror rivojlanish makonini shakllantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

-
1. БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида нутқ. 2017. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

2. Бурганова И.Н. Феномен сетевой дипломатии в системе международных отношений (на примере Российской Федерации) – <https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-setevoy-diplomatii-v-sisteme-mezhdunarodnyh-otnosheniy-na-primere-rossiyskoy-federatsii>
3. Дунё мамлакатлари ўртасида ҳамжихатлик ва очик мулоқот ҳақидаги нутқ. 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8528>
4. «Марказий Осиё – Россия» иккинчи саммитидаги нутқ. 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8558>
5. БМТ Бош Ассамблеяси 80-сессиясидаги нутқ. 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8525>
6. Ўзбекистон давлат мустақиллигининг 34 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8440>
7. See: Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: Public Affairs, 2004.
8. Melissen J. The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. Palgrave Macmillan, 2005.
9. Гребенкина Е.В. Трансформация дипломатии в рамках сетевой структуры мира. – <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-diplomatii-v-ramkah-setevoy-struktury-mira>
10. Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувидаги нутқ. 2024. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7456>
11. Хайдаров А.А. Узбекистан: новый взгляд на перспективы сотрудничества в Центральной Азии. – <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekistan-novyy-vzglyad-na-perspektivy-sotrudnichestva-v-tsentralnoy-azii>
12. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. Том первый. Разум и рационализация общества. Перевод с английского Т.Маккарти. – М.: Прогресс, 1991.
13. Кастельс М. Возникновение сетевого общества. Эпоха информации: экономика, общество и культура. Том первый. Перевод с английского М. Жукова. – М.: Вильяр, 2004.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000